



THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS FOR ENHANCING THE LEGAL AWARENESS AND LEGAL CULTURE OF YOUTH IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Islomhodja Khojakhonov

Senior Lecturer, (PhD)

Namangan State Technical University

i.khujakhonov@mail.ru

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: legal awareness, legal culture, globalization, youth, civil society, legal education, legal upbringing, legal communication, legal nihilism, digital ideology, legal values, social consciousness, legal socialization.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the theoretical and practical foundations for enhancing the legal awareness and legal culture of youth amid globalization processes, the rapid development of information and communication technologies, transnational threats, ideological pressures, and the expansion of virtual manipulative environments.

Received: 02.12.25

Accepted: 03.12.25

Published: 04.12.25

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY ONGI VA HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Islomxo'ja Xo'jaxonov

katta o'qituvchi, (PhD)

Namangan Davlat texnika universiteti

i.khujakhonov@mail.ru

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: huquqiy ong, huquqiy madaniyat, globallashuv, yoshlar, fuqarolik jamiyati, huquqiy ta'lim, huquqiy tarbiya, huquqiy muloqot, huquqiy nigilizm, raqamli mafkura, huquqiy qadriyatlar, ijtimoiy ong, huquqiy ijtimoiylashuv.

Annatsiya: Ushbu maqolada globallashuv jarayonlari, axborot kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, transmilliy xavf-xatarlar, mafkuraviy bosimlar va virtual manipulyativ maydonlarning kengayishi sharoitida yoshlar huquqiy ongini va huquqiy madaniyatini

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ И ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Исломходжа Ходжахонов

Старший преподаватель, (PhD)

Наманганского государственного технического университета

i.khujakhonov@mail.ru

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: правовое сознание, правовая культура, глобализация, молодежь, гражданское общество, правовое образование, правовое воспитание, правовая коммуникация, правовой нигилизм, цифровая идеология, правовые ценности, общественное сознание, правовая социализация.	Аннотация: В данной статье проводится глубокий анализ теоретических и практических основ повышения правового сознания и правовой культуры молодежи в условиях глобализационных процессов, стремительного развития информационно-коммуникационных технологий, роста транснациональных угроз, идеологического давления и расширения виртуальных манипулятивных пространств.
--	--

Krisih. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, informatsion makonning keskin kengayishi, raqamli texnologiyalarning hayotning barcha jabhalariga chuqur kirib borishi zamonaviy jamiyat oldiga tamomila yangi vazifalarni qo‘yimoqda. Ayniqsa yoshlar ongini turli mafkuraviy oqimlar, virtual kommunikatsiya tizimlari va ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllantirish kuchaygan bir paytda, ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish eng dolzarb ijtimoiy-falsafiy muammolardan biriga aylandi. Huquqiy madaniyat jamiyat taraqqiyotining asosiy ko‘rsatkichlaridan bo‘lib, nafaqat qonunlarga hurmat munosabatini, balki shaxsning erkinligi, mas’uliyati, burchi, fuqarolik faolligi, ijtimoiy ong yetukligini o‘zida mujassamlashtiradi. Bugungi globallashgan axborot makonida yoshlarning huquqiy ongini shakllantirish qadimgi Sharq madaniyati, islom huquqiy tafakkuri, Forobiy, Ibn Sino, Nizomulmulk kabi allomalarning adolat va boshqaruv haqidagi qarashlaridan tortib, G‘arb mutafakkirlari – Montesquieu, Locke, Hegel, Habermas ilgari surgan huquqiy davlat va huquqiy muloqot nazariyalarigacha bo‘lgan boy g‘oyaviy an‘analarga tayanadi. Bu jarayonni ilmiy-nazariy, metodologik va amaliy jihatdan chuqur tahlil qilish zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim shartidir.

Asosiy qism. O‘zbekistonda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha izchil siyosat amalga oshirilmogda. “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi”,

“Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, ta’lim tizimida huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan o‘zgarishlar, mahalla institutining kuchayishi, yoshlar siyosatiga bag‘ishlangan farmon va qarorlar ushbu yo‘nalishning institutsional asosini tashkil etadi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, faqat qonun chiqarishning o‘zi yetarli emas. Qonuniylikni ongli qabul qilish va uni kundalik hayot me‘yoriga aylantirish ijtimoiy ong, ma’naviy qadriyatlar va axloqiy tarbiyaning uyg‘unlashuvini talab etadi. Shuning uchun huquqiy madaniyatni faqat yuridik bilimlar majmui sifatida emas, balki insonning ijtimoiy-madaniy mavjudligi, dunyoqarashi, qadriyatlari, ijtimoiy mas’uliyat darajasi bilan bog‘liq murakkab falsafiy-ijtimoiy fenomen sifatida talqin etish lozim.

Huquqiy ong mohiyatan insonning huquqiy voqelikni qanday idrok etishi, talqin qilishi, baholashi va unga nisbatan ongli munosabat bildirish qobiliyatini ifodalaydi. Huquqiy ong tarkibida nazariy huquqiy g‘oyalar, fikrlar, konsepsiyalar va huquqiy psixologiya – odatlar, hissiyotlar, kayfiyatlar, huquqqa bo‘lgan emotsional munosabat bir butun tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Yoshlar huquqiy ongini shakllantirish jarayonida gnoseologik (bilish), aksiologik (qadriyat), regulyativ (xulq-atvorni tartibga soluvchi), tarbiyaviy va kommunikativ funksiyalar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Bilish funksiyasi yoshlar ongida huquq tizimi, davlat va jamiyat munosabatlari, inson huquqlari haqidagi bilimlar majmuini shakllantirsa, aksiologik funktsiya adolat, tenglik, erkinlik kabi universal qadriyatlarni ongga singdiradi. Bu qadriyatlar mustaqillikdan buyon shakllangan milliy g‘oya, ma’naviyat va qadriyatlar tizimi bilan uyg‘unlashib, yoshlarning ijtimoiylashuv jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Globalashuv sharoitida yoshlar ongiga turli mafkura va g‘oyalar, shu jumladan ekstremistik oqimlar, virtual manipulyativ axborotlar kuchli ta’sir qilayotgan bir paytda huquqiy madaniyatning tarbiyaviy funksiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu funktsiya yoshlarni huquqbuzarlik, korrupsiya, zo‘ravonlik, radikalizmga nisbatan murosasiz ruhda tarbiyalaydi. O‘zbekistonda mahalla institutining kuchayishi, Yoshlar ishlari agentligi, Adliya vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan huquqiy-ma’rifiy dasturlar aynan huquqiy tarbiyaning ijtimoiy-madaniy mexanizmlarini mustahkamlamoqda.

Shuningdek, yoshlarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishda xalqaro tajriba muhim o‘rin tutadi. Harvard Universitydagi “case study”, University of Oxforddagi “legal reasoning”, Freie Universität Berlin va University of Toronto markazlaridagi interaktiv huquqiy ta’lim, The University of Tokyo tajribalarida qo‘llanilayotgan raqamli huquqiy platformalar bugungi o‘quv jarayonida zarur metodik yo‘nalishlar hisoblanadi. Bu model O‘zbekiston sharoitida ham samarali qo‘llanishi mumkin: onlayn huquqiy portal va chat-botlar, mobil ilovalar, masofaviy interaktiv huquqiy treninglar – bularning barchasi yoshlar huquqiy ongini zamonaviy, tezkor va tushunarli shaklda shakllantirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, huquqiy madaniyat faqat huquqiy bilimlarning ko'pligi bilan belgilanmaydi, balki shaxsning huquqiy ongida qadriyatlar va xulq-atvorning uyg'unlashuvi bilan aniqlanadi. Yoshlar uchun qonunlar "majburiyatlar to'plami" emas, balki "erkinlik va imkoniyatlarni ta'minlovchi me'yorlar tizimi" sifatida namoyon bo'lishi kerak. Aks holda huquqiy nigilizm, befarqlik, mas'uliyatdan qochish, jamiyat hayotida passivlik kabi salbiy holatlar paydo bo'ladi. Shuning uchun maqolada huquqiy madaniyatga quyidagi mualliflik ta'rifi beriladi: huquqiy madaniyat – bu shaxsning adolat, erkinlik, mas'uliyat va burch kabi universal qadriyatlar asosida shakllangan huquqiy dunyoqarashi, huquqiy bilimi va xulq-atvorining uyg'unlashgan tizimi bo'lib, u yoshlarning fuqarolik faolligi va huquqiy ijtimoiylashuvining asosiy ko'rsatkichidir.

O'zbekistonda huquqiy ongni rivojlantirishning ijtimoiy muhitga bog'liq omillari – oila tarbiyasi, mahalla tizimi, maktab va oliy ta'limdagi huquqiy ta'lim sifati, OAV va internet makonidagi huquqiy kontent sifati – ham ushbu tadqiqotda alohida tahlil qilinadi. Ayniqsa, raqamli OAVning ta'siri kuchaygan bir davrda yoshlarning huquqiy tafakkuri ko'pincha virtual makonda shakllanadi. Shu sababli davlat organlari, NNTlar va ta'lim muassasalari internet platformalarida sifatli, ishonchli, interaktiv huquqiy kontent yaratishi zarur.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yoshlar huquqiy ongini yuksaltirish – bu faqat ta'lim tizimi zimmasidagi vazifa emas, balki jamiyatning barcha bo'g'inlari o'zaro uzviy aloqada faoliyat yuritadigan murakkab ijtimoiy-falsafiy jarayondir. Huquqiy tarbiya faqat auditoriya sharoitida emas, balki shaxsning kundalik hayoti, oilaviy muhit, mahalla institutlari, ommaviy axborot vositalari va virtual kommunikatsiya maydonida shakllanadi. Shuning uchun yoshlarning huquqiy dunyoqarashi ma'lum bir tizimdoirasidagi bilim bilan cheklanmaydi; aksincha, u ijtimoiy muhit, ma'naviy qadriyatlar, tarixiy an'analar, zamonaviy texnologiyalar va siyosiy madaniyatning uyg'unlashuvi orqali tarkib topadi.

Huquqiy madaniyatni yuksaltirish jarayonining murakkabligi ham aynan shu omillar ko'pligi bilan belgilanadi: bir tomondan, ta'lim muassasalari nazariy-huquqiy bilimlarni shakllantirsa, boshqa tomondan, mahalla va oila institutlari yoshlarni amaliy hayotiy tajribaga tayyorlaydi; OAV esa huquqiy ongning kommunikativ maydonini kengaytiradi. Davlat organlari tomonidan qonun ustuvorligini ta'minlovchi siyosiy mexanizmlar ishlatilmay qolsa yoki jamiyatning ma'naviy-axloqiy maydoni yetarlicha faollashmasa, huquqiy ongda bo'shliqlar paydo bo'ladi. Shu bois, huquqiy madaniyatni oshirish jamiyatning turli institutlari faoliyatining uyg'unlashgan holda olib borilishini talab etadi.

Yoshlarning huquqiy ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatish, avvalo, jamiyatda adolat va shaffoflik tamoyillarining amalda ishlashi bilan bog'liq. Huquqiy bilim faqat nazariya darajasida qolib ketmasdan, amaliy hayotda ham ishlashi lozim. Agar yoshlar jamiyatda adolatning ustuvorligini,

qonunlarning hayotiy kuchga egaligini, davlat organlari faoliyatida shaffoflik va mas'uliyatning mavjudligini amalda ko'rmasalar, huquqiy ongda ishonch krizisi – huquqiy nigilizm paydo bo'lishi mumkin. Shu bois “qonunning kuchi” emas, “adolatning kuchi” ustuvor bo'lgan huquqiy muhitni shakllantirish – huquqiy ong rivojining asosiy omilidir.

Huquqiy madaniyatning yuksalishi jamiyatda barqarorlik, tartib, adolat, inson huquqlarining kafolatlanganligi, ijtimoiy ishonch va fuqarolik faolligining ortishi kabi hayotiy ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi. Huquqiy ong yetuk bo'lgan jamiyatda nizolar kuch ishlatish yoki zo'ravonlik orqali emas, balki huquqiy mexanizmlar orqali tinch yo'l bilan hal etiladi. Bunday jamiyatda har bir fuqaro o'z huquqlarini anglagan holda, shu bilan birga o'zining burch va mas'uliyatini ham chuqur his qiladi. Bu esa demokratik jamiyatning eng muhim belgisidir.

Xulosa. Yoshlarning huquqiy ongli, bilimli, mas'uliyatli, tanqidiy fikrlay oladigan va o'z pozitsiyasini huquqiy asoslarda ifoda eta oladigan shaxs sifatida voyaga yetishi Yangi O'zbekiston taraqqiyotining bosh mezonlaridan biridir. Chunki kelajakda jamiyatni boshqaradigan ham, islohotlarni davom ettiradigan ham, iqtisodiyot, ta'lim, texnologiya va siyosat sohaslarini rivojlantiradigan ham aynan bugungi yoshlar bo'ladi. Shuning uchun ularning huquqiy yetukligi nafaqat shaxsiy taraqqiyotning, balki davlatning kelajak muvaffaqiyatining ham asosiy omiliga aylanadi. Shu bois huquqiy madaniyatni oshirish – bu nafaqat davlat siyosati, balki butun jamiyatning ma'naviy-vazifaviy burchidir. Bu burchni ado etish uchun shaxsning o'zini-o'zi rivojlantirishga bo'lgan intilishi, oilaning tarbiyaviy mas'uliyati, mahallaning jamoaviy faolligi, ta'lim tizimining innovatsion yondashuvlarga tayangan metodikasi, OAVning mas'uliyatli axborot siyosati va davlat organlarining adolatli boshqaruvi bir butun mexanizm sifatida ishlashi lozim. Faqat ana shu o'zaro uyg'unlikgina yoshlarning huquqiy tafakkurini chuqur, barqaror va mustahkam shakllantira oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Halilov E. Ijtimoiy turmushda huquqiy ongning o'rni. – Toshkent.: O'zbekiston, 1997. – B. 20-23.
2. Halilov E. Ijtimoiy turmushda huquqiy ongning o'rni. – Toshkent.: O'zbekiston, 1997. – B. 20.
3. Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. – Toshkent.: O'zR IIV Akademiyasi, 1998. – B. 45.
4. Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariysi. – Toshkent.: O'zR IIV Akademiyasi, 1998. – B. 44-45.
5. Alimasov V. Huquqiy ma'rifat va huquqiy madaniyat // Hayot va qonun. – Toshkent.: 2001. – № 2. – B. 70-71.
6. Илин И.А. О сущности правосознания. – М.: 1993. – С. 97-98.

7. Исламов З. Общество. Государство. Право. – Ташкент.: Адолат, 1998. – С. 661.
8. Л. Правосознание и правовая культура // Юрист. – М.: 1998. – № 11/12. – С. 2-3.
9. Саидқосимов А. Ҳуқуқий маданият ва ҳуқуқий тарбия асослари. – Тошкент.: Фан, 2021. – Б. 94.